

TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING KIMYO FANINI O'QITISHDAGI TADBIQI

Kurbanova D.S.

O'qituvchi, Jizzax politexnika instituti
dilafruzsobirovna89@gmail.com

Jo'rayev J. R.

Avazmurodov Z. R.

Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya:

Ta'lrim jarayonida talabalarning turli qobiliyatlarini hisobga olishni, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni, o'quv jarayonida shaxs faolligini rivojlantirishni ta'minlaydigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim texnologiyalarini qo'llash. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim texnologiyalari o'qituvchi va talabaning kollokviumdan o'tishda, individual uy vazifalarini bajarishda, laboratoriya ishlari bo'yicha individual hisobotlarni tayyorlashda, haftalik maslahatlashuvlarda talabaning individual muloqoti natijasida amalga oshiriladi

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lrim texnologiyalari kredit modul tizimi, ma'ruza-seminar tizimi, fizik kimyoviy tahlil.

Ma'lumki, bilim va ilmnинг shakllanishi bevosita ta'lrim tizimiga borib taqaladi. Ta'lrim tizimi samaradorligini professor-o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limga shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarini etishtirish oliy o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lrim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lrim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lrim muassasa(OTM)larida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilab berildi[1-3]. Shuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lrim muassasasining 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lrim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tilgan edi. Mana ikki yil o'tdi. Tizimni joriy etishda OTMlarida qanday muammolar paydo bo'ldi, ularni bartaraf etishda tizimga qanday o'zgartirishlar kiritildi, bugun va kelajak uchun mazkur tizim qay darajada foyda keltirishini baholash mumkinmi? Uni to'liq amaliyotga joriy etishda nimalarga e'tibor qaratilishi kerak.Ushbu maqolada mana shu savollarga bat afsil javob izlashga harakat qilamiz.

Kredit-modul tizimi - ta'limga tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasи va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi, unda ikkita asosiy masalaga ahamiyat berilgan: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Masalaning ikkinchi qismi maqsaddan kelib chiqib to'liq bajarilmoqda, talabalar bilimi xolisona baholanmoqda. Masalanning birinchi qismida esa ta'lrim jarayonida mustaqil ta'lrim olishning ulushi oshgan bo'lsada, lekin talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash uchun o'qituvchiga o'quv soatlari ajratilmagan, ya'ni o'qituvchining faoliyati mustaqil ta'lrim bilan bog'lanmagan. Bu esa talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy

bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib qo'yidagi xulosani chiqarish mumkin, mazkur tizimni talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirish, mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratish ya'ni rejalashtirilgan ta'lif natijalariga erishish uchun dars mashg'ulotlarini o'qitishni innovatsion ta'lif texnologiyalari asosida olib borish kerak. Hozirgi kunda "Kimyo" fanini o'qitishda turli xil ta'lif texnologiyalaridan foydalanilmoqda:

-Bilimlar tizimini shakllantirish, ularni esda saqlash va erkin ishlatalishga qaratilgan axborot va ishlab chiqish texnologiyalarini qo'llash;

-Ma'ruza-seminar usuli, adabiyotlarni mustaqil o'rghanish, bilimlarni mustaqil to'ldirish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, shu jumladan texnik va elektron vositalardan foydalanish;

-Faoliyatga ya'ni amaliyotga yo'naltirilgan texnologiyalar - tajriba tadqiqotlarni o'tkazishda kasbiy amaliy ko'nikmalar tizimini shakllantirishga qaratish, bu kelgusida kasbiy faoliyatni sifatli bajarish imkoniyatini beradi.

-Tahlil, fizikaviy va kimyoviy tadqiqotlar o'tkazish usullarini taqqoslash, muayyan ishlab chiqarish sharoitida o'rghanish ob'ektiga qarab usulni tanlash va undan amaliy sharoitda amalga oshirishda foydalanish;

-Muammoli fikrlash, aqliy faoliyat, muammolarni ko'rish va shakllantirish, ularni hal qilish usullari va vositalarini tanlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlanirishga qaratilgan muammoga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish;

-Muammoli ta'lif turlarini qo'llash: ma'ruzalarda har bir mavzuni asosiy muammolarini yoritib berish, o'quv munozaralari, laboratoriya ishlarini bajarishda guruhlarda kollektiv aqliy faoliyat, texnologik muammolarni hal qilish. Bunda murakkablik va mustaqillikning dastlabki uchta darjasasi (to'rttadan) qo'llaniladi: o'qituvchi tomonidan o'quv materialini muammoli taqdim etish; o'qituvchi va u bilan birga talabalar tomonidan muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishda qaratiladi; o'qituvchi faqat muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchilar esa mustaqil faoliyat jarayonida uni hal qiladilar.

-Ta'lif jarayonida talabalarning turli qobiliyatlarini hisobga olishni, ularning individual qobiliyatlarini rivojlanirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni, o'quv jarayonida shaxs faolligini rivojlanirishni ta'minlaydigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarini qo'llash. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari o'qituvchi va talabaning kollokviumdan o'tishda, individual uy vazifalarini bajarishda, laboratoriya ishlari bo'yicha individual hisobotlarni tayyorlashda, haftalik maslahatlashuvlarda talabaning individual muloqoti natijasida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, talabalar o'rtasida rejalashtirilgan kompetensiyalarni maqsadli va samarali shakllantirish uchun o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va ta'lif faoliyatini kuchaytirish usullarini to'g'ri tanlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. N.G.Raxmatullaev, N.T. Omonov, Sh.M Mirkomilov va b. "Kimyo o'qitish metodikasi" T. "O'qituvchi" 2015.
3. Pozilov M.N., Karimova F.S., Qurbonova D.S. Kimyo fanini mukammal o'zlashtirish uchun glossariy

treninglarini o'quv jarayoniga joriy etish. "Ta'limdi uzluksiz kasbiy rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi roli, joriylanish masalalari: maqsad va vazifalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy anjuman materiallari to'plami, Qarshi: "Nasaf" NMIU, 2022, 175 bet.

4. Kurbanova, D., & Bobomurodova, S. (2023). СИММ-ДИХЛОРЭТАН (1, 2-ДИХЛОРЭТАН) ДАН ВОДОРОД ХЛОРИД АЖРАЛИШ РЕАКЦИЯСИННИГ КИНЕТИК ҚОНУНИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 178-188.
5. Kurbanova, D., Fayzullaev, N., & Bobomurodova, S. (2023). Determination of optimal conditions and kinetic laws of hydrogen chloride separation reaction from simm-dichloroethane (1, 2-dichloroethane). In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 10028). EDP Sciences.
6. Fayzullaev N. et al. Obtaining vinyl chloride by oxychlorination of ethylene under the action of hydrogen chloride in the presence of oxygen //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 460. – С. 10023.
7. Berdiqulov, Toshtemir, and Dilafruz Kurbanova. "ATOM TUZILISHI NAZARIYASI." *Молодые ученые* 2.12 (2024): 23-24.
8. Kurbanova, Dilafruz. "TUZLARNI OLINISH USULLARI VA XOSSALARINI O'RGANISH." *Молодые ученые* 2.12 (2024): 48-52.
9. Mamasoliyev, Ortiq, and Dilafruz Kurbonova. "MUZ KO 'RINISHIDAGI QATTIQ MODDALARNING TABIATDAGI BOG 'LANISHLARINI O 'RGANISH." *Молодые ученые* 1.18 (2023): 75-77.
10. Otaxonov, B. B., and D. S. Kurbanova. "TUZLAR XAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR." *Молодые ученые* 2.11 (2024): 85-87.
11. Ҳамидов, С. Ҳ., & Ҳакбердиев, Ш. М. (2021). Бирламчи алифатик аминларнинг госсиполли ҳосиллари синтези. *Science and Education*, 2(3), 113-118.
12. Ҳамидов, С. Ҳ., Муллажонова, З. С. Қ., & Ҳакбердиев, Ш. М. (2021). Кумушнинг госсиполли комплекси ва спектрал таҳлили. *Science and Education*, 2(2).
13. Hamidov, S. X., Mullajonova, Z. S. Q., & Xakberdiev Sh, M. (2021). Gossypol complex and spectral analysis of silver. *Science and Education*, 2(2).